



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 146 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Oллоbergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAVOD O'RGATISHGA TAYYORLASHNING SAMARALI SHAKL, METOD VA DIDAKTIK VOSITALARI

Go'zal Qurbonova

Buxoro davlat pedagogika instituti, DSc tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakllari, metodlari va didaktik vositalarining nazariy hamda metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, multisensor ta'lim, storytelling, STEAM elementlari hamda raqamli didaktik vositalarning ilk savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Shuningdek, savod o'rgatishga tayyorlashning samaradorligini belgilovchi pedagogik shart-sharoitlar, rivojlantiruvchi ta'lim muhiti, ota-onalar bilan hamkorlik va individual yondashuvning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, savod o'rgatishga tayyorlash jarayonida zamonaviy shakl, metod va didaktik vositalarni kompleks qo'llash bolalarning fonologik ongini, nutqiy kompetensiyasini, grafomotor ko'nikmalarini hamda maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, savod o'rgatishga tayyorlash, ilk savodxonlik, storytelling, multisensor ta'lim, interfaol metodlar, STEAM, didaktik vositalar, grafomotor ko'nikmalar, fonologik ong.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of effective forms, methods, and didactic tools for preparing preschool children for literacy learning. The study analyzes contemporary pedagogical approaches, interactive teaching methods, play-based technologies, multisensory learning, storytelling, STEAM elements, and digital didactic tools used in preschool education to foster early literacy competencies.

Particular attention is paid to the pedagogical conditions that ensure effective literacy preparation, including a development-oriented learning environment, parental involvement, and an individualized approach. The findings indicate that the integrated application of modern instructional forms, methods, and didactic resources significantly enhances children's phonological awareness, language competence, graphomotor skills, and psychological readiness for formal schooling.

Key words: preschool education, literacy readiness, early literacy, storytelling, multisensory learning, interactive methods, STEAM, didactic tools, graphomotor skills, phonological awareness.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические и методические основы эффективных форм, методов и дидактических средств подготовки детей дошкольного возраста к обучению грамоте. Проанализированы современные педагогические подходы, интерактивные методы, игровые технологии, мультисенсорное обучение, сторителлинг, элементы STEAM и цифровые дидактические средства, применяемые в системе дошкольного образования для развития компетенций ранней грамотности.

Особое внимание уделено педагогическим условиям, развивающей образовательной среде, сотрудничеству с родителями и индивидуальному подходу как факторам, определяющим эффективность подготовки к обучению грамоте. Результаты исследования показывают, что комплексное применение современных форм, методов и дидактических средств способствует эффективному развитию фонологического сознания, речевой компетентности, графомоторных навыков и психологической готовности детей к школьному обучению.

Ключевые слова: дошкольное образование, подготовка к обучению грамоте, ранняя грамотность, сторителлинг, мультисенсорное обучение, интерактивные методы, STEAM, дидактические средства, графомоторные навыки, фонологическое сознание.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi va eng muhim bo'g'ini bo'lib, unda bolaning keyingi intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga asos yaratiladi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida shakllanadigan nutq, tafakkur, muloqot madaniyati va ilk savodxonlik kompetensiyalari bolaning maktab ta'limidagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi^[1]. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida savodxonlik tushunchasi an'anaviy "harf tanish" yoki "o'qishni bilish" mazmunidan ancha keng talqin qilinmoqda. UNESCO ekspertlari savodxonlikni shaxsning kundalik hayotda matn bilan ishlash, axborotni anglash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish kompetensiyasi sifatida izohlaydilar^[2]. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash jarayoni faqat harflarni o'rgatish bilan cheklanmasdan, ularda fonologik ong, og'zaki nutq, lug'at boyligi, muloqot madaniyati, tinglash va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham qamrab olishi lozim.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, xalqaro standartlarga mos rivojlantirish hamda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti bolalarning nutqiy rivojlanishi, ilk savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish va o'quv faoliyatiga tayyorlashni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilaydi^[3].

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida savod o'rgatishga tayyorlash mashg'ulotlari hali ham reproduktiv usullar asosida tashkil etilmoqda. Pedagog faol, bola esa passiv tinglovchi sifatida ishtirok etadigan bunday yondashuv bolalarning tabiiy qiziqishi, ijodkorligi va mustaqil fikrlashini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Natijada maktabga kelayotgan ayrim bolalarda fonematik eshituv, bog'lanishli nutq, grafomotor ko'nikmalar va o'qishga motivatsiya yetarli shakllanmaganligi kuzatilmoqda^[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar savod o'rgatishga tayyorlash jarayonida bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos shakl, metod hamda didaktik vositalarni tanlash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda^[5]. Ayniqsa, o'yin texnologiyalari, interfaol metodlar, multisensor ta'lim, loyiha faoliyati, storytelling, STEAM elementlari va raqamli ta'lim vositalari bolalarda savodxonlikning tabiiy rivojlanishini ta'minlaydigan samarali pedagogik vositalar sifatida e'tirof etilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun o'yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli savod o'rgatishga tayyorlash jarayonini o'yin bilan uyg'unlashtirish psixologik va pedagogik jihatdan eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Didaktik o'yinlar orqali bola tovushlarni farqlash, bo'g'inlarni ajratish, yangi so'zlarni o'zlashtirish, hikoya tuzish va muloqot qilishni tabiiy ravishda o'rganadi. Bunday mashg'ulotlarda bola bilimni tayyor shaklda emas, balki faoliyat jarayonida egallaydi^[6].

Fonologik ongni rivojlantirish ham savod o'rgatishga tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar fonematik eshituv rivojlangan bolalar maktabda o'qish va yozishni tezroq o'zlashtirishini isbotlagan^[7]. Shu bois tovushlarni ajratish, qofiya topish, bo'g'inlarga bo'lish, tovush o'yinlari va ritmik mashqlar maktabgacha ta'lim metodikasining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Bugungi kunda multisensor yondashuv ham savod o'rgatishga tayyorlashning istiqbolli metodlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur yondashuvda ko'rish, eshitish, sezish va harakat analizatorlari birgalikda faoliyat yuritadi. Harfni ko'rish, qo'l bilan ushlab, havoda chizish, tovushini aytish va predmet bilan bog'lash orqali bola axborotni chuqurroq o'zlashtiradi. Montessori pedagogikasida qo'llaniladigan sensor harflar, qum ustida yozish, relyefli kartochkalar ana shunday metodikaning yorqin namunalaridir^[8].

Storytelling metodi ham maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Hikoya tinglash, hikoya yaratish, ertaklarni dramatisatsiya qilish va voqealarni izchil bayon etish bolalarda bog'lanishli nutq, tasavvur, lug'at boyligi hamda matnni tushunish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, mazkur metod bolalarning ijodkorligi va emotsional intellektini ham qo'llab-quvvatlaydi^[9].

So'nggi yillarda STEAM texnologiyalarining maktabgacha ta'limga kirib kelishi savod o'rgatishga tayyorlash metodikasini yanada boyitdi. Harflar va so'zlarni konstruktorlar yordamida yasash, tabiatni kuzatish asosida hikoya tuzish, robototexnika elementlari bilan tanishish yoki raqamli ilovalar yordamida tovushlarni farqlash kabi faoliyatlar bolalarda til rivoji bilan bir qatorda mantiqiy tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, rivojlantiruvchi predmet-fazoviy muhitning ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiqdir. Kitob burchaklari, harf va so'z kartochkalari, magnitli alifbo, interaktiv doskalar, sensor panellar, multimedia vositalari



va mobil ilovalar bolalarda savodga bo'lgan qiziqishni oshiradi hamda mashg'ulotlarning emotsional jozibadorligini kuchaytiradi.

Pedagogning metodik mahorati ham savod o'rgatishga tayyorlashning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Pedagog turli metod va vositalarni bolaning yosh, qobiliyat va rivojlanish darajasiga mos ravishda uyg'unlashtira olishi lozim. Individual yondashuv, differensial topshiriqlar, kuzatish va rivojlanish monitoringi bu jarayonning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta'lim nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika hamda faoliyatga asoslangan o'qitish tamoyillari tashkil etdi. Shuningdek, Maria Montessori, Jean Piaget, Lev Vygotskiy, Jerome Bruner, David Weikart, Loris Malaguzzi va boshqa olimlarning maktabgacha ta'limga oid ilmiy qarashlari nazariy tayanch sifatida qabul qilindi ^[1].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakllari, metodlari va didaktik vositalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashda samarali shakllar, metodlar va didaktik vositalarning ilmiy-metodik asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, sifat (qualitative) va qiyosiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasiga asoslandi. Tadqiqot davomida zamonaviy maktabgacha pedagogika, rivojlanish psixologiyasi, lingvodidaktika, ilk savodxonlik nazariyasi hamda xalqaro maktabgacha ta'lim dasturlariga oid ilmiy manbalar kompleks tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashda qo'llanilayotgan shakllar, metodlar va didaktik vositalarning ilmiy-metodik imkoniyatlari kompleks ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida ilk savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish alohida mashg'ulotlar bilan emas, balki bolaning barcha faoliyat turlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Nazariy va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, savod o'rgatishga tayyorlashning samaradorligi uchta asosiy omilga bog'liq:

- ta'limni tashkil etish shakllari;
- qo'llanilayotgan metodlarning interfaolligi;
- didaktik vositalarning xilma-xilligi va rivojlantiruvchi xususiyati.

Mazkur uch komponent uyg'unlashganda bolaning fonologik ongi, og'zaki nutqi, lug'at boyligi, grafomotor ko'nikmalari hamda o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi sezilarli darajada rivojlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasida aniqlandiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlikni rivojlantirishning eng samarali shakli integrallashgan faoliyat hisoblanadi. Bunda nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari tasviriy san'at, musiqa, konstruktorlik, tabiatni kuzatish, dramatisatsiya va o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi.

Masalan, "Hayvonlar olami" mavzusini o'rganishda bolalar nafaqat hayvonlar nomini o'rganadi, balki ular haqida hikoya tuzadi, rasmini chizadi, plastilindan yasaydi, tovushlariga taqlid qiladi hamda mazkur so'zlarni bo'g'in va tovushlarga ajratishni mashq qiladi. Natijada yangi leksik birliklar bolaning faol lug'atiga tabiiy ravishda kirib boradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, didaktik o'yinlardan muntazam foydalanish bolalarda savodga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, quyidagi o'yinlarning samaradorligi yuqori ekani kuzatildi:

1. "Qaysi tovushni eshitding?";
2. "Bo'g'inlardan so'z tuz";
3. "Sehri harflar";
4. "Harfni top";

5. "Davom ettir";
6. "Kim ko'proq so'z aytadi?";
7. "Topishmoqni yech".

Mazkur o'yinlar davomida bolalar o'zlari sezmaganda fonematik tahlil, tovushlarni ajratish, bo'g'inlarni birlashtirish va yangi so'zlarni hosil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Storytelling metodining pedagogik imkoniyatlari ham alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hikoya yaratish va ertaklarni drammatizatsiya qilish bolalarda quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi:

- bog'lanishli nutq;
- lug'at boyligi;
- mantiqiy ketma-ketlikni saqlash;
- tasavvur;
- ijodkorlik;
- dialogik nutq.

Hikoya yaratish jarayonida bolalar yangi so'zlarni kontekstda qo'llashni o'rganadi. Bu esa ularning passiv lug'atini faol lug'atga aylantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, fonologik o'yinlarning samaradorligi ham yuqori ekanini aniqlandi. Tovushlarni tinglash, farqlash, birinchi va oxirgi tovushni topish, qofiya hosil qilish kabi mashqlar o'qish va yozishni o'zlashtirishning eng muhim omillaridan biri bo'lgan fonologik ongni rivojlantiradi.

1-jadval: Savod o'rgatishga tayyorlashda metodlarning pedagogik samaradorligi

Metod	Nutq rivoji	Fonologik ong	Lug'at boyligi	Motivatsiya	Mustaqil fikrlash
Didaktik o'yin	+++	++	++	+++	++
Storytelling	+++	++	+++	+++	+++
Rolli o'yin	++	+	++	+++	++
Muammoli vaziyat	+	+	++	++	+++
STEAM faoliyati	++	+	++	+++	+++
Multisensor metod	++	+++	++	++	++

(+++) - juda yuqori samaradorlik

(++) - yuqori samaradorlik

(+) - o'rtacha samaradorlik

Jadval natijalari storytelling va didaktik o'yinlarning savodga tayyorlashda eng samarali metodlardan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlash jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda didaktik vositalarning o'zaro integratsiyasi asosida tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishilishini ko'rsatdi. Olingan natijalar nafaqat O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi, balki xalqaro maktabgacha ta'lim amaliyotida shakllangan ilmiy qarashlar bilan ham uyg'unlashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ilk savodxonlikni shakllantirish bolaning harf va tovushlarni yod olishi bilan emas, balki uning nutqiy, psixologik, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishi bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Mazkur xulosa UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Early Childhood Care and Education konsepsiyasida ilgari surilgan tamoyillar bilan hamohang bo'lib, unda maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolani maktab fanlariga oldindan o'rgatish emas, balki uning keyingi ta'lim faoliyati uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish ekanini ta'kidlangan [2].

Tadqiqot davomida o'yin texnologiyalarining samaradorligi alohida namoyon bo'ldi. Didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va harakatli mashqlar bolalarda o'qishga nisbatan ichki motivatsiyani kuchaytirishi, fonologik ongni rivojlantirishi hamda lug'at boyligini kengaytirishi kuzatildi. Bu natijalar Piagetning bolaning bilish faoliyati o'yin orqali rivojlanishi haqidagi nazariy qarashlari bilan mos keladi [4].

Storytelling metodining natijalari ham e'tiborga loyiqdir. Hikoya yaratish, ertaklarni drammatizatsiya qilish, rasmlar asosida voqealarni izchil bayon etish bolalarda bog'lanishli nutq, tasavvur, mantiqiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni sezilarli darajada rivojlantirdi. Brunerning narrativ tafakkur haqidagi ilmiy qarash-



lariga ko'ra ham inson bilimni hikoya shaklida osonroq o'zlashtiradi va uzoq muddat xotirada saqlaydi ^[5]. Shu sababli storytelling metodini maktabgacha ta'lim mashg'ulotlariga tizimli ravishda integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Fonologik mashqlarning samaradorligi ham tadqiqot davomida tasdiqlandi. Tovushlarni tinglash, farqlash, bo'g'inlarga ajratish, qofiya topish va tovushlar bilan bog'liq o'yinlar bolalarning o'qish va yozishga tayyorgarligini sezilarli darajada kuchaytirishi aniqlandi. Xalqaro tadqiqotlarda ham fonologik ong maktabdagi o'qish muvaffaqiyatining eng muhim prediktorlaridan biri sifatida e'tirof etiladi ^[6].

Multisensor yondashuv bo'yicha olingan natijalar Montessori pedagogikasi tamoyillarini yana bir bor tasdiqladi. Bola harfni nafaqat ko'rishi, balki ushlashi, havoda chizishi, qum ustida yozishi va tovushini talaffuz qilishi orqali bir vaqtning o'zida bir necha analizator faoliyat ko'rsatadi. Bunday mashqlar harflarni eslab qolish va grafomotor ko'nikmalarni shakllantirishni tezlashtiradi.

Raqamli didaktik vositalarning imkoniyatlari ham tadqiqot davomida alohida tahlil qilindi. Interaktiv doskalar, elektron alifbo, multimedia materiallari va mobil ilovalar bolalarning mashg'ulotlarga qiziqishini oshirishi kuzatildi. Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli vositalardan foydalanish pedagog rahbarligida va me'yor asosida tashkil etilgandagina ijobiy natija beradi. Aks holda, bolaning diqqatini uzoq vaqt ekranga qaratish emotsional charchash va diqqatning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat aniqlandi. Savod o'rgatishga tayyorlashda faqat metod yoki didaktik vositaning o'zi yuqori natija bermaydi. Samaradorlik pedagog tomonidan shakl, metod va vositalarning o'zaro uyg'unlashtirilishi bilan belgilanadi. Masalan, storytelling metodini didaktik kartochkalar, drammatizatsiya va raqamli taqdimot bilan birgalikda qo'llash bolalarda yangi leksik birliklarning faol o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari ota-onalar bilan hamkorlikning muhimligini ham tasdiqladi. Uy sharoitida kitob mutolaasi, ertak o'qish, suhbatlashish, tovush o'yinlari va birgalikdagi ijodiy faoliyat bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, tadqiqot natijalari savod o'rgatishga tayyorlashning samarali modeli quyidagi komponentlar integratsiyasiga asoslanishi kerakligini ko'rsatdi:

- rivojlantiruvchi ta'lim muhiti;
- interfaol pedagogik metodlar;
- multisensor yondashuv;
- didaktik o'yinlar;
- storytelling;
- raqamli texnologiyalar;
- ota-onalar bilan hamkorlik;
- individual yondashuv;
- kompetensiyaviy baholash.

Mazkur komponentlarning uyg'unligi bolalarda maktab ta'limi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakllari, metodlari va didaktik vositalarini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, savod o'rgatishga tayyorlash harf va tovushlarni o'rgatish bilangina cheklanmaydi. U bolaning nutqiy, intellektual, psixologik, emotsional va kommunikativ rivojlanishini qamrab oluvchi kompleks pedagogik jarayon hisoblanadi.

Ikkinchidan, didaktik o'yinlar, storytelling, fonologik mashqlar, multisensor metodlar hamda STEAM elementlari bolalarda fonologik ong, lug'at boyligi, bog'lanishli nutq va grafomotor ko'nikmalarni rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega.

Uchinchidan, rivojlantiruvchi predmet-fazoviy muhit va zamonaviy didaktik vositalar bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyani shakllantiradi.

To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar savod o'rgatishga tayyorlashning qo'shimcha samarali vositasi hisoblanadi. Biroq ularni pedagogik maqsadga muvofiq va me'yoriy asosda qo'llash zarur.

Beshinchidan, savod o'rgatishga tayyorlashning muvaffaqiyati pedagogning metodik mahorati, ota-onalar bilan hamkorligi hamda individual yondashuvni ta'minlay olishi bilan chambarchas bog'liq.

Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalari, adaptiv raqamli platformalar va immersiv ta'lim vositalaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning innovatsion metodikasini ishlab chiqish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bruner J. Actual Minds, Possible Worlds. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 2020. - 212 p.
2. UNESCO. Right from the Start: Build Inclusive Societies through Inclusive Early Childhood Education. - Paris: UNESCO Publishing, 2022. - 86 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Ilk qadam: maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. - Toshkent, 2022. - 236 b.
4. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. - London: Routledge Classics, 2023. - 448 p.
5. Bruner J. Acts of Meaning. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 2020. - 181 p.
6. Snow C. E., Burns M. S., Griffin P. (Eds.). Preventing Reading Difficulties in Young Children. - Washington, DC: National Academies Press, 2022. - 448 p.
7. Montessori M. The Montessori Method. - New York: Montessori-Pierson Publishing Company, 2021. - 416 p.
8. Epstein A. S., Hohmann M. Educating Young Children: Active Learning Practices for Preschool and Child Care Programs. - 3rd ed. - Ypsilanti, MI: HighScope Press, 2024. - 536 p.
9. Edwards C., Gandini L., Forman G. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation. - 4th ed. - Santa Barbara: Praeger, 2024. - 520 p.
10. Whitebread D., Coltman P. Teaching and Learning in the Early Years. - 6th ed. - London: Routledge, 2024. - 512 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.